



«TASDIQLAYMAN»

O'zbekiston Respublikasi

Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari

A.XODJAYEV

«14» 02 2017 y.

“O'zbekiston Respublikasiga qaytish uchun sertifikat rasmiylashtirish va shaxsni tasdiqlash tartibi” davlat xizmati reglamenti

1. Xizmat tavsifi (pasporti)

1.1. Xizmat nomi

O'zbekiston Respublikasiga qaytish uchun sertifikat rasmiylashtirish va shaxsni tasdiqlash.

O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari (keyingi matnda – konsullik muassasalari) tomonidan chet elda vaqtincha yashayotgan va O'zbekistonda doimiy ro'yxatda turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va fuqaroligi yo'q shaxslarining (quyidagi holatlarda: shaxsini tasdiqlovchi hujjatini yo'qotgan, hujjati yaroqsiz holga kelgan, muddati o'tgan, varaqlari tugagan, avval pasport bilan rasmiylashtirilmagan fuqarolar) shaxsini tasdiqlash va ularga O'zbekiston Respublikasiga qaytish guvohnomalarini (keyingi matnda – Sertifikat) berish masalarini ko'rib chiqish.

1.2. Xizmat natijasi

Chet elda vaqtincha yashayotgan va O'zbekistonda doimiy ro'yxatda turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va fuqaroligi yo'q shaxslarga (quyidagi holatlarda: shaxsini tasdiqlovchi hujjatini yo'qotgan, hujjati yaroqsiz holga kelgan, muddati o'tgan, varaqlari tugagan, avval pasport bilan rasmiylashtirilmagan fuqarolar) ularning shaxsi tasdiqlangan so'ng ularga Sertifikat berish.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar va blankalar olish uchun manzil

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi Elchixonalari hamda Tashqi ishlar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda.

*Shaxsni tasdiqlash va Sertifikat olish uchun arizachi konsullik muassasasining veb-saytida so'rovnoma-arizasini to'ldirishi va unga elektron rasmimi biriktirishi lozim
So'rovnoma-arizasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining quyidagi interaktiv saytida to'ldirilishi ham mumkin: <http://consul.mfa.uz/>*

1.4. Huquqiy asos

1. 1996-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to'g'risida»gi 261-I-son Qonuni;

2. 2011-yil 5-yanvardagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4262-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O`zbekiston Respublikasida pasport tizimi to`g`risida»gi Nizomi;

3. 2011-yil 7-iyuldagi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 200-son qarori bilan tasdiqlangan «O`zbekiston Respublikasining biometrik pasporti, fuqaroligi yo`q shaxs va 16 yoshga to`lmagan shaxs guvohnomasini berish tartibi to`g`risida»gi Nizomi;

4. 2015-yil 6-aprelda O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 15-son bilan ro`yxatga olingan «O`zbekiston Respublikasiga qaytish guvohnomasini berish tartibi to`g`risida»gi Yo`riqnoma (xizmat doirasida foydalanish uchun).

1.5. Xizmat ko`rsatiladigan shaxslar

Chet elda vaqtincha yashayotgan va O`zbekistonda doimiy ro`yxatda turgan O`zbekiston Respublikasining fuqarolari va fuqaroligi yo`q shaxslar (quyidagi holatlarda: shaxsini tasdiqlovchi hujjatini yo`qotgan, hujjati yaroqsiz holga kelgan, muddati o`tgan, varaqlari tugagan, avval pasport bilan rasmiylashtirilmagan fuqarolar).

1.6. Murojaat etish muddati

Sertifikat olish uchun shaxsni tasdiqlash bo`yicha so`rovnoma-ariza imkon qadar qisqa muddatda topshirilishi lozim.

1.7. Bajarish muddati

Sertifikat O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi (keyingi matnda – O`zR IIV XCHK va FRB)dan “Sertifikat” dasturi orqali uning shaxsi tasdiqlangandan so`ng beriladi.

1.8. Tasdiqni berish muddati

Tasdiq O`zR IIV XCHK va FRBdan “Sertifikat” dasturi orqali uning shaxsi tasdiqlangandan so`ng beriladi.

2. Xizmat oluvchilarga ma'lumot berish

2.1. Ma'lumot tarkibi va hajmi

Istalgan murojaat etuvchi shaxsga quyidagi ma'lumotlar beriladi:

- xizmat ko`rsatuvchi konsullik muassasasining manzili, ishlash vaqti, tashrif buyuruvchilarni qabul qilish jarayoni haqida (telefon orqali oldindan navbat olish, murojaat etgan kuni qabul qilish, o`zi kelgan kuni navbatga turish va hokazolar);

- xizmat ko`rsatish uchun zarur bo`lgan hujjatlar ro`yxati to`g`risida;

blanklarni to`ldirish uchun zaruriy talablar va to`lovlarni amalga oshirish tartibi to`g`risida;

- xizmat ko`rsatish muddati haqida;

- xizmat ko`rsatish reglamenti mavjudligi va reglament bilan tanishish usullari haqida.

2.2. Keng xabardor qilish

Chet elda vaqtincha yashayotgan va O`zbekistonda doimiy ro`yxatda turgan O`zbekiston Respublikasining fuqarolari va fuqaroligi yo`q shaxslarining (quyidagi holatlarda: shaxsini tasdiqlovchi hujjatini yo`qotgan, hujjati yaroqsiz holga kelgan, muddati o`tgan, viza varaqlari tugagan, avval pasport bilan rasmiylashtirilmagan fuqarolar) shaxsini tasdiqlash va ularga

Sertifikat berish bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasalarining veb-sahifalarida va Tashqi ishlar vazirligining quyidagi interaktiv saytida mavjud: <http://consul.mfa.uz/>

2.3. Murojaat orqali ma'lumot

O`zR IIV XCHK va FRBdan fuqaroning shaxsi tasdiqlangandan so`ng unga Sertifikat berilishi mumkinligi haqidagi ma'lumot uning so`rovnoma – arizasida ko`rsatilgan telefon raqami orqali xabar beriladi.

Shaxsan: 9-00 dan 17-00 gacha xizmat ko'rsatish haqida barcha savollar bo'yicha og'zaki maslahatlar berish va kerakli hujjatlarning standart matni, tarkibi ko'rinishida yozma ma'lumot berish;

Telefon orqali: 9-00 dan 17-00 gacha katta hajmdagi ma'lumotni berishni talab qilmaydigan xizmat ko'rsatish haqida barcha savollar bo'yicha og'zaki maslahatlar berish (5 daqiqadan ortiq emas);

Faks orqali: kun-u tun yozma murojaatlarin qabul qilish, 9-00 dan 17-00 gacha qog'oz ko'rinishidagi hujjatlarni murojaatga binoan jo'natish;

Elektron pochta orqali: kun-u tun istalgan yozma murojaatlarni matnning keng tarqalgan formatlar yoki kelishuvga asosan boshqa ko'rinishida yozma murojaatlarin qabul qilish, 9-00 dan 17-00 gacha oddiy matn formatidagi yozma hujjatlarni yoki ilova qilingan fayl yoki kelishuvga asosan boshqa ko'rinishida, ushbu standartning jo'natishga tayyor bo'lgan fayllar, kerakli balanklar, manzilga borish sxemasi mavjudligi.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyida ma'lumot berish

Manzillar, telefon va faks raqamlari, elektron manzillar, veb-sahifalar va boshqa zarur ma'lumotlar uchun murojaat: <http://mfa.uz/uz/>

2.5. Ishlatladigan hujjatlar blanklari

2015-yil 6-aprelda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 15-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasiga qaytish guvohnomasini berish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomaga binoan Sertifikat blanklari maxsus hisobda turuvchi hujjat hisoblanadi.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

O'zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasalarida Sertifikat berish bo'yicha qabul vaqti asosan: 10.00 dan 12.00 va 14.00dan 17.00 gacha, murojaat etuvchi fuqarolar ko'p bo'lgan ba'zi davlatlarda shanba kuni 10.00 dan 12.00 gacha ham qabul amalga oshirilishi mumkin.

4. Xizmat ko'rsatish jarayoni

4.1. Kerakli hujjatlar

Sertifikatni olish uchun arizachi konsullik muassasasiga quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- qog'ozda chop etilgan, arizachining imzosi qo'yilgan, bar-kodi ko'rsatilgan elektron so'rovnoma-arizasi, 3 nusxada;*
- 2 dona rangli fotosurat (35x45 mm);*
- muddati o'tgan, yaroqsiz holga kelgan, varaqlari tugagan shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asli;*
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat yo'qolganda – shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki shaxsni tasdiqlovchi*

boshqa ma'lumotnoma nusxasi va shaxsni tasdiqlovchi hujjat yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi haqida vakolatli idoralarning ma'lumotnomasi (imkoniyat darajasida).

- avval pasport bilan rasmiylashtirilmagan fuqarolar uchun – ularning tug'ilganlik haqida guvohnomasi va ota-onasining pasportlaridan nusxa;

- konsullik to'lovlari chiptasi.

4.2. Xizmatga to'lov

Sertifikat olish uchun 2013-yil 24-dekabrda PQ-2095-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorining 1-moddasi «d» bandida ko'zda tutilgan 50 AQSH dollari miqdoridagi konsullik to'lovlari va 5 (MDH davlatlarida), 10 (boshqa davlatlarda) AQSH dollari miqdoridagi ma'muriy xarajatlar olinadi. 16 yoshga to'lmagan bolalar ushbu to'lovlardan ozod etiladi.

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari

1) 1-bosqich: elektron so'rovnoma-arizasini to'ldirish va chop etish;

2) 2-bosqich: elektron so'rovnoma-arizasi va boshqa tegishli hujjatlarni konsullik muassasasiga topshirish;

3) 3-bosqich: konsullik xodimi tomonidan arizachi bilan suhbat o'tkazish va hujjatlarni talablarga binoan tekshirish;

4) 4-bosqich: konsullik va boshqa to'lovlarni amalga oshirish hamda hujjatlarni konsullik xodimiga topshirish;

5) 5-bosqich: telefon orqali sertifikat rasmiylashtirish bo'yicha ma'lumot olish va uni olish.

4.4. Idoralararo xizmat ko'rsatish jarayonlari

1) 1-jarayon: Konsullik xodimi tomonidan elektron so'rovnoma - arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarni tegishli talablar asosida tekshirish hamda ularni arizachidan qabul qilish;

2) 2-jarayon: Elektron so'rovnoma-arizasida ko'rsatilgan «barkod»ni "Sertifikat" dasturiga kiritish va so'rovnomaning himoyalangan elektron aloqa vositasida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi XCHK va FRBga yuborish;

3) 3-jarayon: Arizachining shaxsi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi XCHK va FRB tomonidan tasdiqlangandan so'ng telefon orqali unga Sertifikat rasmiylashtirish uchun tayyor ekanligini xabar berish.

4) 4-jarayon: Sertifikatni rasmiylashtirish va uni arizachiga berish.

4.5. Rad qilish asosi

Quyidagi holatlar arizachiga Sertifikat berish rad etilishi mumkin:

- o'zi yoki shaxsini tasdiqlovchi hujjatning yo'qolganligi to'g'risida yolg'on ma'lumotlar bersa;

- taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar belgilangan talablarga mos kelmasa (hujjatlar yetarli emas, so'rovnoma-arizasidagi ma'lumotlar aniq va to'liq emas);

- taqdim qilingan hujjatlardagi ma'lumotlar haqiqiy bo'lmasa;

- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi XCHK va FRBning pasportlar bo'yicha avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasida arizachiga shaxsni tasdiqlovchi hujjat rasmiylashtirilganlik haqida ma'lumotlar mavjud bo'lmasa.

5. Sifatni ta'minlash

5.1. Sifat parametrlari

Biografik ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilganda va ular haqiqiy bo'lgan holda to'la va sifatli xizmat ko'rsatish ta'minlanadi.

5.2. Sifatsiz ko'rsatiladigan xizmat ustidan shikoyat qilish

Xizmatning joyi, vaqti va muddati bo'yicha konsullik xodimning harakati hamda u tomonidan hujjatlarning qabul qilinmasligi bo'yicha shikoyatlar konsullik muassasasi rahbari yoki undan yuqori turuvchi idora – O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga taqdim qilinishi mumkin.



«KIRITILGAN»

O'zbekiston Respublikasi

Tashqi ishlar vazirligi

Konsullik boshqarmasi boshlig'i

A.SAXIBOV

« 14 » 02 2017y.

«KELISHILGAN»

O'zbekiston Respublikasi

Axborot texnologiyalari

va kommunikasiyalarini

rivojlantirish vazirligi

« » 2017y.